



LEGAL SIGNIFICANCE OF DECLARING PUBLIC OFFICIALS' ASSETS AND INCOME IN THE SPHERE OF ANTI-CORRUPTION

Ozodbek Tursunbayev

Lawyer of the 3rd degree

Employee of the Secretariat of the Human Rights Ombudsman of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: tursunbayevozodbek0@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: corruption, UNO, convention, public official, public servant, crime, punishment, declaration, state bodies, public officials' income.

Received: 15.03.25

Accepted: 17.03.25

Published: 19.03.25

Abstract: This article analyzes the international legal framework for combating corruption, organizational and legal aspects of the implementation of international anti-corruption standards in national legislation based on the norms of the UN Convention, legal frameworks and mechanisms for declaring public officials' assets in order to prevent corruption, conducts a comparative legal analysis of the experience of foreign countries in declaring income and assets of public servants, and theoretically highlights the opinions of scientists and practicing lawyers.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA MANSABDOR SHAXSLARNING DAROMADLARI VA MOL-MULKINI DEKLARATSIYALASHNING HUQUQIY AHAMIYATI

Ozodbek Tursunbayev

3-darajali yurist

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)

Kotibiyati xodimi

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: tursunbayevozodbek0@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: korrupsiya, BMT, konvensiya, mansabdor shaxs, davlat xizmatchisi, jinoyat, jazo, deklaratsiya, davlat organlari, mansabdor shaxslarning daromadlari.

Annotatsiya. Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy asoslari, BMT Konvensiyasi normalari asosida korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standartlarini milliy

qonunchilikka implementatsiya qilish yuzasidan tashkiliy-huquqiy fikrlar tahlili, korrupsiyani oldini olishda mansabdor shaxslarning daromadlarini deklaratsiya qilishning huquqiy asoslari va mexanizmlari, davlat xizmatchilari daromadlari, mol-mulklarini deklaratsiyalashda xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, nazariy jihatdan olimlar, huquqshunos amaliyotchilar fikrlari yoritilgan.

ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЕКЛАРИРОВАНИЯ ДОХОДОВ И ИМУЩЕСТВА ДОЛЖНОСТНЫХ ЛИЦ В СФЕРЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ

Озодбек Турсунбаев

Юрист 3 уровня

Сотрудник Секретариата Уполномоченного Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам человека

Ташкент, Узбекистан

E-mail: tursunbayev.ozbek0@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: коррупция, ООН, конвенция, должностное лицо, государственный служащий, преступление, наказания, декларация, государственные органы, доходы должностных лиц.

Аннотация: В данной статье анализируются международно-правовые основы противодействия коррупции, организационно-правовые аспекты имплементации международных стандартов противодействия коррупции в национальное законодательство на основе норм Конвенции ООН, правовые основы и механизмы декларирования доходов должностных лиц в целях предотвращения коррупции, проводится сравнительно-правовой анализ опыта зарубежных стран по декларированию доходов и имущества государственных служащих, а также теоретически освещаются мнения ученых и юристов-практиков.

Kirish. Korrupsiya – har bir davlatdagi fuqarolik jamiyatining, demokratik institutlar faoliyatining, davlat boshqaruvi organlari va boshqa davlat tashkilotlari faoliyatlarining qonuniy, barqaror olib borilishiga to‘sqinlik qiluvchi, xalqning davlat hukumatiga bo‘lgan ishonchini yo‘qqa chiqaruvchi salbiy ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi. Shuning uchun, davlatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida – korrupsion omillarni oldini olish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalaridagi korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, 2025-yil 5-martda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning korrupsiyani oldini olish bo‘yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor

vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishida davlatimizda korrupsion omillarni aniqlash va ularga barham berish doirasida, "Islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov – korrupsiyadir. Buni dunyo tajribasi ham to'liq tasdiqlamoqda, korrupsiya oqibatida jahon iqtisodiyoti yiliga 3 trillion dollar zarar ko'rayotgani bu global xavf ekanidan dalolat beradi. Korrupsiya shunday yovuz illatli, u xalqning davlatga, Konstitutsiya va qonunlarga bo'lgan ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun jiddiy tahdidga aylanadi" [1].

Shuningdek, BMT Bosh kotibi Antonio Gutterishning 2023-yil 11-15-dekabr kunlari AQSHning Atlanta shahrida o'tkazilgan BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 20 yillik yubileyi yuzasidan xalqaro konferensiyasidagi nutqida "Korrupsiya nafaqat resurslarni balki insonlarning adolatga bo'lgan umidini ham tortib olmoqda, barcha a'zo davlatlarni korrupsiyani aniqlash, tergov qilish va korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda xalqaro hamkorlikka chaqiramiz" – deb ta'kidlagan edi. [2] Bundan ko'rinib turibdiki, korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat davlat siyosati darajasidagi strategik masala balki, xalqaro hamjamiyat oldida turgan hal etilishi lozim bo'lgan muhim xalqaro huquqiy majburiyat ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar tahlili. Keyingi navbatda, BMT Konvensiyasini huquqiy tahlil qilishdan oldin O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishdagi milliy qonunchilik hujjatlari asosida korrupsiya tushunchasini huquqiy ta'rifini ko'rib chiqamiz. Xususan, 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonunning 3-moddasiga muvofiq, **korrupsiya** – bu shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish hisoblanadi [3]. Korrupsiyaga qarshi kurashishda mansabdor shaxslarning daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish samarali huquqiy mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Deklaratsiya so'zi aslida lotin tilidan "ma'lum qilmoq, bildirmoq" degan ma'nolarni anglatib, huquqiy sohada deklaratsiya deganda – muayyan ommaviy faoliyat yuzasidan taraflarning huquq va majburiyatlari belgilanadigan, nizoni oldini olish choralari ifodalanadigan ommaviy huquqiy xususiyatga ega rasmiy hujjat tushuniladi[4].

Jahonda daromadlarni deklarativlashning vujudga kelish tarixiga nazar tashlasak, II Jahon urushidan so'ng, davlat xizmatchilarining mol-mulkklarini deklarativlashning ahamiyati AQSh davlatida birinchilardan bo'lib kuzatilgan. Jumladan, AQShda XX asrning 50-yillarida hokimiyat tizimida o'sib borayotgan takroriy korrupsion nizolar – qonun tashabbuskorlari uchun davlatda ijtimoiy halollikni asos solishga undagan edi. Xususan, AQSh Prezidenti Garri Trumanning 1951-yil 27-sentabrda Kongressga yo'llagan murojaatida: "Bugun davlat amaldorlarining halolligi va rostgo'yligi haqida ko'tarilayotgan savollar bilan birga, men o'ylaymanki, barchamiz o'z

daromadlarimiz haqidagi faktlarni davlat ro'yxatida aks ettirishga tayyor bo'lishimiz kerak" – deb ta'kidlagan edi [5]. Biroq, AQShda 1950-yillarda federal darajada davlat mansabdor shaxslarning daromadlari deklaratsiyalash tizimini amalga kiritishga turli omillar to'sqinlik qilgan edi. Keyinchalik, 1965-yilda AQSh Prezidenti Lindon B. Jonson federal darajadagi mansabdor shaxslar o'zlarining shaxsiy moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni vakolatli davlat organlariga oshkor qilish talabini ma'muriy boshqaruv tizimiga kiritgan edi.

Ta'kidlash joizki, BMT Bosh Assambleyasining №58/4-son Rezolyutsiya asosida 2003-yil 31-oktyabrda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi"ning 8-moddasida deklaratsiyalash institutining xalqaro huquqiy asosini ko'rishimiz mumkin. Konvensiyaning 8-moddasi 5-bandiga muvofiq, konvensiyaning har bir ishtirokchi davlati, tegishli hollarda va o'z ichki qonunchiligining fundamental prinsiplariga asosan, ommaviy mansabdor shaxslarni tegishli organlariga, boshqa ma'lumotlar qatori, ommaviy mansabdor shaxslar sifatidagi funksiyalarida manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan xizmatdan tashqari faoliyat, mashg'ulotlar, investitsiyalar, aktivlar hamda muhim sovg'a yoki har qanday ko'rinishdagi foyda to'g'risida deklaratsiyalarni taqdim etishga majbur qiladigan tegishli choralarni ko'rishlari lozimligi belgilangan [6] O'zbekiston Respublikasi esa mazkur Konvensiyaga 2008-yil 7-iyulda qo'shilgan hamda Konvensiyada belgilangan xalqaro huquqiy normalarni bajarishga xalqaro hamjamiyat oldida xalqaro huquqiy majburiyat olgan [7] Mansabdor shaxslarning daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish – korrupsiyani ildizi bilan olib tashlashga to'liq asos bo'lmaydi. Ushbu huquqiy institut faqatgina korrupsiyani oldini olish, unga qarshi samarali kurashishda yordamchi vosita sifatida ko'maklashishi mumkin. Xususan, yuridik fanlar doktori, professor, Rossiya Federatsiyasi Hisob palatasining Ilmiy-tadqiqot instituti direktori o'rinbosari I.V.Levakinning fikriga ko'ra, davlat xizmatchilarining daromadlari va xarajatlarining deklaratsiyasi qilinishi - korrupsiyaga qarshi kurashishda yaxlit bir yechim emas, korrupsiyaning sabablari ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida yotadi. Ammo mazkur huquqiy mexanizmning ta'sirini e'tiborsiz qoldirish mumkin emas [8]

Shuningdek, davlatimizda yuridik sohada ilmiy tadqiqot olib boruvchi professorlardan B.I.Ismailov, I.I.Nasriyevlarning ta'kidlashlaricha, davlat xizmatchilarining daromad va mol-muklini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi, davlat xizmatiga halollik standarti (halollik vaksinasi) va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish standartlarini joriy etishda hamda korrupsion holatlarga samarali ta'sir choralari qo'llashda, korrupsiyani qabul qilish xalqaro reytingida yuqori o'rinlarni egallashda muhim huquqiy vosita hisoblanadi [9]

Yuqorida keltirilgan nazariy huquqiy yondoshuvlardan kelib chiqqan holda, davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslarning daromadlari va mol-mulklarini deklaratsiya qilishdan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- davlat boshqaruvi faoliyatida korrupsiyani oldini olish;
- manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik;
- davlat xizmatchilarining moliyaviy holatini oshkoraligi;
- xalqning davlat xizmatchisiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash;
- davlat budgetining talon-taroj qilinishini oldini olish;
- davlat iqtisodiyotiga ehtimoliy xavflarni oldini olish;
- noqonuniy boylik orttirishning oldini olish, aniqlash va javobgarlikka tortish;
- davlat organlari faoliyatiga halollik vakinasini joriy qilish;
- jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda, O‘zbekiston Respublikasida mansabdor shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishi va noqonuniy daromadlarini legallashtirish ko‘rsatkichlari yildan-yilga o‘tib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yilgi jinoyatchilik holati yuzasidan axborotiga muvofiq, 2024-yilda 3821 ta jinoyat ishi doirasida 4906 ta mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan bo‘lsa, 2023-yilda 3412 ta jinoyat ishi doirasida 3575 ta mansabdor shaxslar javobgarlik tortilgan edi. Buning oqibatida 2024-yilda davlat byudjetiga 3 trillion 608 mlrd. so‘m zarar yetkazilgan bo‘lib, shundan 2 trln. 343 mlrd. so‘m undirilgan. Demak, 2024-yildagi mansabdor shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishi 2023-yilga nisbatan **37 foizga** o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida, mansabdor shaxslar, davlat xizmatchilarining korrupsion jinoyatlarni sodir etishlariga qarshi kurashishdan ko‘ra, ularning faoliyatida korrupsion omillar, xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash sohasida deklaratsiyalash institutining huquqiy jihatdan dolzarbligini bildiradi. Ta’kidlash joizki, davlatimizda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslarning mol-mulkini deklaratsiya qilish sohasida amalda bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ular faqatgina ushbu huquqiy mexanizmning joriy etilishiga dastlabki qadam sifatida baholanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoniga muvofiq, davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish hamda ularning ish haqi yetarli darajada bo‘lishini ta’minlash, shuningdek, davlat xizmatini o‘tashda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish vazifasi belgilab qo‘yilgan [10] Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-son Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tashkil etilib, Agentlikning asosiy vazifalaridan biri sifatida – davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali

faoliyat yuritishini hamda deklaratsiyalarning haqqoniyligi tekshirilishini tashkil etish, shuningdek, ushbu jarayonda aniqlangan korrupsiya holatlariga o'z vaqtida ta'sir choralari ko'rilishini ta'minlash ishlari kiritilgan edi [11] Biroq mazkur normativ-huquqiy hujjatlar davlatimizda davlat xizmatchilarining daromadlari, mol-mulklarini deklaratsiya qilishning yaxlit ijrosini belgilab beruvchi, aniq vazifalar ko'rsatuvchi, deklaratsiyalash tartibini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi qoidalarni o'zida aks ettirmagan. Biroq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 5-martdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqlarida, davlat xizmatchilarining daromadlarini deklaratsiya qilish to'g'risidagi qonunni qabul qilishning vaqti-soati kelgani ushbu sohada jamoatchilik fikri muhimligini hisobga olib, mutasaddi tashkilot rahbarlariga 2025-yil 1-aprelga qadar qonun loyhasini jamoatchilik muhokamasiga kiritish topshirig'i berildi [12] Bu esa o'z navbatida, ushbu sohada davlatimizda kelgusida aniq ma'muriy-huquqiy mexanizmning ishlab chiqilishiga hamda jamoatchilik uchun taqdim etilishiga asos bo'ladi.

Xulosa. Yuqoridagi xalqaro huquqiy hujjatlar, milliy qonunchilik hamda xorijiy huquqshunoslarning tajribalaridan kelib chiqqan holda, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat xizmatchilarining mol-mulklarini va daromadlarini deklaratsiya qilishda quyidagi takliflar beriladi:

- mansabdor shaxslarning mol-mulkini, daromadlarini yillik deklaratsiya topshirish usuli bilan reestrda kiritish;
- davlat xizmatchilarining yaqin qarindoshlari (turmush o'rtog'i, farzandlari, ota-onasi) mol-mulklarini ham ro'yxatga qo'yish;
- mansabdor shaxslarning xorijiy moliyaviy institutlardagi pul mablag'larini hisobini yuritish;
- davlat xizmatchilarining yillik xarajatlarini hisobini yuritish;
- mansabdor shaxslarning investitsiya loyihalaridagi pul mablag'larini hisobini yuritish.

Ushbu huquqiy takliflar korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali huquqiy mexanizmini yaratishga hamda davlatimizning korrupsiyani qabul qilish xalqaro reytinglarida yuqori o'rinlarni egallab, yirik investorlarni davlatimizga jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, "O'zbekiston-2030 strategiyasi"ning 89-maqsadida "Transparency International" global indeksida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurash sohasida 50 pog'onaga ko'tarilish lozim ekanligini davlat siyosati darajasida belgilab qo'yilgan. Hozirgi kunda Transparency International xalqaro indeksida O'zbekiston Respublikasi 33 bal bilan 180 davlatlardan orasida 121-o'rinni egallamoqda [13] Ushbu ko'rsatkichni yanada yuqoriroq pog'onaga olib chiqishda mansabdor shaxslarning daromadlarini, mol-mulkini deklaratsiya qilish institutining milliy qonunchilikda alohida maxsus

normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanishi va uning ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish muhim hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyat oldidagi xalqaro huquqiy majburiyatlarini bajarish, davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qilish organlarning normal faoliyat yuritishida va mansabdor shaxslarning qonuniy faoliyatini ta'minlash doirasida davlat xizmatchilarining daromadlari, mol-mulklarini deklaratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 5-martdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqidan <https://president.uz/oz/lists/view/7924>
2. UN anti-corruption conference celebrates 20th anniversary of UN Convention against Corruption, Atlanta, USA <https://www.unodc.org/unodc/en/frontpage/2023/December/the-fight-against-corruption-is-everyones-fight--un-anti-corruption-conference->
3. 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonun
4. LexisNexis, Glossary, Declaration. UK 2025 <https://www.lexisnexis.co.uk/legal/glossary/declaration>
5. President Harry S. Truman's Message to Congress, 27 September 1951. Here quoted from G.C. Mackenzie and M. Hafken (2002), Scandal Proof: Do Ethics Laws Make Government Ethical. Brookings Institution Press, p. 19.
6. United Nations Convention against Corruption, New York – 2003. <https://lex.uz/docs/-1461329>
7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi O'RQ-158-son Qonun <https://lex.uz/docs/-1369505>
8. Левакин И. В. О декларировании публичными должностными лицами данных о расходах (Международный опыт) // Право и современные государства. 2012. №1. С. 6-7. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-deklarirovanii-publichnyimi-dolzhnostnymi-litsami-dannyh-o-rashodah-mezhdunarodnyy-opyt>
9. Ismailov B.I., I.I.Nasriyev. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish masalalari // O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi 2020. – 223 b
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoni
12. Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 5-martdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqidan <https://president.uz/oz/lists/view/7924>
13. <https://www.transparency.org/en/countries/uzbekistan>